**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

NIZOMOVA ZARIFA KAMOLIDDIN QIZI

**O'ZBEK VIRTUAL MULOQOTIDA NOVERBAL VOSITALARNING
O'RNI VA FUNKSIONAL TADQIQI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) in Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

NIZOMOVA ZARIFA KAMOLIDDIN QIZI

**O'ZBEK VIRTUAL MULOQOTIDA NOVERBAL VOSITALARNING
O'RNI VA FUNKSIONAL TADQIQI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Ilmiy rahbar:	**Usmonova Hurinisa Sharapovna,** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Akbarova Zuxro Akmaljonovna,** filologiya fanlari doktori, professor
	Nabiyeva Dilora Abduhamidovna, filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Qoʻqon davlat universiteti**

N.M.Uluqov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor.

I.Oʻ.Darvishov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

F.I.Karimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc), dotsent.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida zamonaviy davr axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yangi shakl-vositalari o'zgarish jarayoni kuchayib, muloqotni antroposentrik yondashuv paradigmalari usul va tamoyillari asosida ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etishga e'tibor ortib bormoqda. Bunga dunyoning XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan globallashuvi, axborot texnologiyalarining shiddat bilan taraqqiy etishi, virtual muloqotning ommalashuvi hamda noverbal vositalarning odatiy kundalik muloqot shakllaridan biriga aylanib borayotgani sabab bo'lmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridagi innovatsiyalar virtual muloqotdagi til va nutq birliklarining qo'llanishida muayyan o'ziga xosliklar mavjudligini, bunday muloqot jarayonidagi lisoniy birliklar "til va uning egasi" munosabatlari bilan bog'liq holdagi zaruriy ehtiyojligini, til egasiga xos bo'lgan milliy-madaniy, ijtimoiy, ruhiy, kognitiv lisoniy va nutqiy jarayonlarni amaliy asoslarga ko'ra tadqiq etish dolzarb masala ekanligini ko'rsatmoqda.

Dunyo tilshunosligida nutqiy muloqotning noverbal vositalari: ovozning turli tonlari, ishoralar, mimika va gavda harakatlari kabilar tilshunoslikning turli sohalarida tadqiq etib kelinmoqda. Zamonaviy muloqot etikasida munosabatlarning o'ta erkin, kutilmagan hamda rasmiy til qoidalaridan chekinishga moyillik kuchliligi keng kuzatilmoqda. Nutqiy muloqot jarayonida noverbal vositalarning ishtiroki faollashib, ular o'z zimmasiga ko'proq kommunikativ-pragmatik vazifani olmoqda. Ayniqsa, aloqa-aralashuvning nisbatan yangi shakli hisoblanuvchi virtual muloqotda ham noverbal vositalarning lisoniy-pragmatik ahamiyati masalasini ilmiy jihatdan mukammal va to'liq o'rganish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbek tilshunosligida noverbal vositalarning muloqot tizmidagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, virtual muloqotda bunday vositalarning qo'llanishi hamda bu jarayonda milliy-madaniy ottenkalarning namoyon bo'lishi masalasi ham tilshunoslar e'tiborini jalb etib kelmoqda. Zero, "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir"[1]. Shu jihatdan, muloqotning nisbatan yangi va kam tadqiq etilgan virtual shakli va unda qo'llanadigan ekspressiv, baholash, to'ldirish, tejash funksiyalarini bajaruvchi noverbal vositalarni tadqiq qilish o'zbek tilshunosligi oldida ham dolzarb va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. O'zbek tilida nutq akti ishtirokchilarining ham muloqot jarayonida verbal birliklarga qo'shimcha vositalar – noverbal birliklar orqali yuzaga chiquvchi virtual muloqotni, undagi milliy-madaniy, an'ana va urf-odatlarga oid, shuningdek, diniy, mental va gender xususiyatlarning ifodaviy va funksional jihatlarini tadqiq etish tilshunosligimiz va o'zbek nutq madaniyatini rivojida muhim ahamiyatga ega zaruratdir.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni. Manba:http://lex.uz/docs/4561730.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu doktorlik dissertatsiya ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida paralingvistik vositalar masalasi turli aspektlarda G.V.Kolshanskiy, I.N.Gorelov, G.Y.Kreydlin, R.K.Potapova, V.V.Potapov, A.Piz, B.Piz, V.A.Pronnikov, I.D.Ladanov, C.Stepanov, S.A.Garkaves, I.Kuznesov, J.Messinjer, L.I.Dmitriyeva, L.N.Klokova, V.V.Pavlova, T.N.Pirkina, I.A.Axyamova, G.V.Barishnikova, M.L.Butovskaya, M.L.Knapp, J.A.Hall, M.Argyle, V.P.Richmond kabi olimlar[2]ning tadqiqotlarida yoritildi. Virtual muloqotdagi noverbal vositalar tadqiqiga oid qarashlar esa N.Kurniasih, M.K.Apetyan, U.I.Turko[3] kabilarning izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbek tilshunosligida paralingvistik vositalarning mazmuniy va stilistik tadqiqiga bag‘ishlangan ishlardan A.Nurmonov, M.Saidxonov, S.Mo‘minov, Sh.Iskandarova, A.Aripova, Z.Akbarova, Q.Rasulov, A.Haydarov, G.Toirova,

---

[2] Колшанский Г.В. Паралингвистика. – Москва: Наука, 1974.; Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникации. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 112 с.; Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: язык тела и естественный язык. – Москва: Новое литературное обозрение, 2002. – 592 с.; Крейдлин Г.Е. Мужчины и женщины в невербальной коммуникации. – Москва: Языки славянской культуры, 2005. –224 с.; Knapp M. L., Hall J. A. Nonverbal Communication in Human Interaction. – Crawfordsville, 2002.; Argyle M. Bodily Communication. – New York, 1988. Richmond V. P., Mc Croskey J. C. Nonverbal Behavior in Interpersonal Relations. – Boston, 2004.

[3] Kurniasih N. Paralinguistics cues used and miscommunication on social media: case study of students of communication science program Universitas Padjadjaran. – The 1st International Conference on Language, Linguistics and Literature “Digital Literacy as A Means of Publication” Institut Agama Islam Negeri Surakarta: Surakarta, 5-6 August 2017. – P. 319-325.; Апетян М.К. Особенности виртуальной коммуникации // Молодой ученый, 2015, №3(83). – С. 939-941.; Turko U.I. Смайлик, эмотикон и эмодзи как невербальные средства общения в интернет-коммуникации// Filologicheskiye nauki. Voprosy teorii i praktiki jurnali, 2024, Т.17, №9.

Q.Kaxxarov, X.Ismoilov, B.Ahmedov, M.Burhanova, N.Xursanovlar[4]ning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin. A.Nurmonovning "O'zbek tilining paralingvistik vositalari" nomli risolasi o'zbek tilshunosligida mazkur birliklarni monografik planda o'rganishga qaratilgan dastlabki tadqiqot hisoblanadi. Shuningdek, M.Saidxonovning "Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi" nomli nomzodlik hamda "O'zbek tilida ishoralarning verballashuvi hamda matniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalari o'zbek paralingvistik vositalari tadqiq etishda amalga oshirilgan muhim izlanishlardan sanaladi.

O'zbek tilshunosligida virtual muloqotning lisoniy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu sohada amalga oshirilgan ishlar ichida, xususan, Sh.Shaxabiddinova, I.Xojialiyev, D.Rustamov, R.Xalilova, G.Toirova, M.Madaminova, T.To'xtasinova[5]larning tadqiqotlari mavjud. Shuningdek, B.Isroilovaning "Ijtimoiy omillarning tilga ta'siri (virtual muloqot tahlili asosida)" nomli dissertatsiyasida virtual muloqot va uning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari yoritilgan. Ushbu dissertatsiyada virtual muloqotdagi noverbal vositalar masalasiga ham qisman to'xtalib o'tilgan.[6] Yuqoridagi tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, virtual muloqotda noverbal vositalar masalasi

[4] Qarang: Нурмонов А. Инкорнинг паралингвистик воситалар билан ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979. – № 1.; Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. – Андижон, 1980. – 24 б.; Саидхонов М. Новербал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993.; Нурмонов А., Саидхонов М. Паралингвистические средства выражения утверждения и отрицания // Советская тюркология. 1986, № 5. – Б. 61 – 69.; Саидхонов М. Ишора феъллари семантикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1998, 1 – сон. – Б. 38 – 41.; Саидхонов М. Алоқа – аралашув ва имо – ишоралар. – Тошкент: Фан, 2008. – 83 б.; Саидхонов М. Ўзбек тилида ишораларнинг вербаллашуви ҳамда матний хусусиятлари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Фарғона, 2022.; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – 140 б.; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий – лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док – ри дисс. – Тошкент, 2000. – 236 б.; Арипова А . Нотиқлик нутқининг лисоний – услубий воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – 186 б.; Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 135 б.; Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 139 б.; Ҳайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 136 б.; Тоирова Г. Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филол. фан. . докт- ри дисс. – Тошкент, 2017. – 157 б.; Кахаров Қ. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фанл. докт-ри дисс. – Андижон, 2020. – 148 б; Исмоилов Х.Т. Суд лингвистикасининг социолингвистик ва психолингвистик аспектлари (Жиноят ишлари бўйича суд мажлиси мисолида): Филол. фан. док – ри дисс – Андижон, 2021. – 142 б; Ахмедов Б. Р. Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи. Филол. фан. док – ри дисс 2021. – 153 б.; Бурханова М.М. Креолизатив матнларнинг паралингвистик таҳлили. Филол. фан. докт- ри дисс. автореферати. – Фарғона. 2022. – 56 б.; Хурсанов Н. Драматик дискурсда вербал ва новербал компонентлар муносабати: Филол. фан. докт- ри дисс. – Андижон, 2022. – 144 б.
[5] Шахабитдинова Ш., Рустамов Д., Попов Д., Рустамова Д., Абдуллаев Б., Миралимова Ш. Оммавий лисоний маданият(Жамоавий монография). Андижон: Step by step print: 2020; Шаҳобиддинова Ш.Тилнинг бир вазифаси тўғрисида мулоҳазалар.// Ўзбек тили ва тилшунослигининг мустақиллик давридаги тараққиёти. Илмий-назарий анжуман матер. – Фарғона, 2011; Хожиалиев И. Коммуникатив имконият структураси. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001,№ 6. Рустамов Д. Интернет мулоқотининг ўзига хос жиҳатлари. // Сўз санъати халқаро журнал. 3 жилд. 2020.№ 3; Лисоний қиймат ва мулоқот жараёни. АДУ, Илмий хабарнома. 2020, № 5(49); Мулоқотнинг интралингвистик ва экстралингвистик талқинлари ҳамда замонавий концепциялари: Филол. фан. доктори (DSc)…дисс.– Андижон, 2021; Халилова Р. Виртуал тизимда нутқий дискурснинг социомаданий ва прагматик хусусиятлари.Таълим ва инновацион тадқиқотлар халқаро илмий-методик журнал. ISSN 2181-1709(Р) 2021, № 5; Мадаминова М. Интернет дискурси – мулоқот тури сифатида.VII Uluslararasi Turklerin Dunyasi Sosyal Bilimler Sempozyumu. ISBN:978- 625-00-8481-6. Ankara,2023; To'xtasinova N. Mediamuloqotning paralingvistik omillari. Международный научный журнал. «Научный импульс».№ 8 (100), часть Март, 2023.
[6] Isroilova B. Ijtimoiy omillarning tilga ta'siri (virtual muloqot tahlili asosida): filol.fanl.fals.dokt....diss. – Andijon, 2024. – 140 b.

o'zbek tilshunosligida monografik planda o'z tadqiqini topmagan. Bu esa mazkur masalani kengroq o'rganishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "O'zbek tilining sistem va antroposentrik tadqiqi" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek virtual muloqotida noverbal vositalarning ifodalanishidagi funksional xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

paralingvistik vositalar tadqiqi va tahliliga doir jahon va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarni umumlashtirish;

virtual muloqotning lingvistik va nolingvistik jihatlarini tahlil etish;

virtual muloqotda noverbal vositalarning qo'llanish darajasini aniqlash;

virtual muloqotda noverbal vositalarning semantik-funksional jihatlarini yoritish;

noverbal vositalarda milliy-madaniy ottenkalarning ifodlalanishi masalasini ochib berish.

Tadqiqotning obyektini ijtimoiy tarmoqlardagi virtual muloqotda qo'llanadigan noverbal vositalar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti o'zbek virtual muloqotidagi noverbal vositalarining ifodaviy-semantik va funksional xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda umumfalsafiy metodlardan kuzatuv, analiz, sintez, tavsiflash, lingvistik metodlardan qiyoslash, lingvomadaniy, pragmatik, statistik tahlil, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Noverbal – ishoraviy va tasviriy-grafik vositalarning borliq va uning inson ongida kognitivlashuvi, ularning millatlararo umumlisoniy va hududiy-etnik milliy-mental konseptuallashuvining tarixiy-qiyosiy, lisoniy-madaniy va kommunikativ-mazmuniy ifodalari hamda qo'shimcha nutqiy ko'rinishlarining umumiy-ijtimoiy va individual-xususiy tomonlari ochib berilgan;

virtual muloqotda qo'llanadigan nutqiy strategiyalar, ularning makon va zamonga bog'liqligi, til muhiti va nutqiy vaziyatlar qonuniyatlari, nutqiy davriy chegaralari aniqlangan, noverbal vositalar tasniflangan, ularning funksional vazifalari, umumlisoniy konseptual-tushunchaviy qirralari, dunyoviy-diniy, etno-mental, milliy-hududiy va ifodaviy-mazmuniy asoslari dalillangan;

virtual muloqotning turli ishoraviy, tasviriy-grafik belgilari noverbal nutqiy vositalarning emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltirishi, muloqotning baholanishi, tejalishish, modallikni ifodalash usul – yo'llari hamda muloqotda kompensatsiya qilish funksional vazifalarining yuzaga chiqaruvchi omillari, sabablari amaliy isbotlangan;

virtual muloqot asosiy qismni tashkil etuvchi noverbal vositalardagi umumiy universal xususiyatlari, ularning muayyan xususiy ijtimoiy-madaniy muhitning

virtual muloqotiga ta'sir ko'rsatishi, milliy-madaniy hamda hududiy-nutqiy ottenkalarning kognitiv-ishoraviy, tasviriy-grafik nutqiy ifodalanishi lisoniy ongning umumiylik va xususiylik mezonlari orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paralingvistik vositalar milliy xususiyatlarni o'zida gavdalantiruvchi, urf-odatlar, rituallar, adab xatti-harakatlari bilan aloqador bo'lgan nutqiy muloqotning ajralmas uzvi ekanligi hamda o'ziga xos pragmatik mazmun kasb etishi va genderologik xususiyatlari ko'rsatib berilgan. Mazkur tadqiqotdan olingan ilmiy natijalardan kognitiv tilshunoslik, nutq madaniyati, pragmalingvistika, sotsiopragmatika, lingvokulturologiya, paralingvistika hamda og'zaki so'zlashuv uslubi yuzasidan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkin. Shuningdek, kelgusida mazkur sohalar bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun bevosita material sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalar, ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada keltirilgan fikr-mulohazalar shakllanish bosqichida turgan o'zbek amaliy tilshunosligi, o'zbek funksional tilshunosligi yo'nalishlarining nazariy jihatdan ilmiy asoslar va xulosalar bilan boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa o'zbek paralingvistik vositalarining misolida amalga oshirilgan genderologik va pragmatik tahlillar lingvomadaniyatshunoslik, nutq madaniyati, pragmalingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika fanlari bo'yicha yaratiladigan o'quv qo'llanmalarining mukammallashuvi uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Virtual muloqotda noverbal vositalarning semantik va funksional jihatlarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Noverbal – ishoraviy va tasviriy-grafik vositalarning borliq va uning inson ongida kognitivlashuvi, ularning millatlararo umumlisoniy va hududiy-etnik milliy-mental konseptuallashuvining tarixiy-qiyosiy, lisoniy-madaniy va kommunikativ-mazmuniy ifodalari hamda qo'shimcha nutqiy ko'rinishlarining umumiy-ijtimoiy va individual-xususiy tomonlari ochib berilgan o'rinlardan va chqarilgan xulosalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan "A-1-126. Uzluksiz ta'limda o'quvchilar til kompetentligini shakillantirishning zamonaviy usullari" davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida amalga oshirilgan amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 30-apreldagi № 01/4-1788-son ma'lumotnomasi). Natijada amaliy

loyihaning til egalarining kompetentligini shakllantirishda lisoniy birliklar va ularning voqealanish usullari haqidagi ilmiy-xulosaviy tomonlari boyitilgan;

virtual muloqotda qo'llanadigan nutqiy strategiyalar, virtual muloqot bosqichlarining makon va zamonga bog'liq bo'lgan jihatlari til muhiti va nutqiy vaziyatlat qonuniyatlariga tayanib, nutqiy davriy chegaralari aniqlangan, noverbal vositalarning tasniflanib, ularning funksional vazifalari, umumlisoniy konseptual-tushunchaviy qirralari, dunyoviy-diniy, etno-mental, milliy-hududiy va ifodaviy-mazmuniy asoslari dalillangan o'rinlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan "PF-201912258 – "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" amaliy grant loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 30-apreldagi № 01/4-1787-son ma'lumotnomasi). Natijada amaliy loyihaning o'zbek adabiyotining zamonaviy davr axborot kommunikatsiyasi vositalari hamda yangi maydonga kelayotgan shakllari, badiiy muloqotni antroposentrik yondashuv paradigmalari usul va tamoyillari asoslarining ayrim o'rinlari to'ldirilgan;

virtual muloqotning turli ishoraviy, tasviriy-grafik belgilari noverbal nutqiy vositalarning emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltirishi, muloqotning baholanishi, tejalishish, modallikni ifodalash usul – yo'llari hamda muloqotda kompensatsiya qilish funksional vazifalarining yuzaga chiqaruvchi omillari, sabablari amaliy isbotlangan hamda virtual muloqot asosiy qismni tashkil etuvchi noverbal vositalardagi umumiy universal xususiyatlari, ularning muayyan xususiy ijtimoiy-madaniy muhitning virtual muloqotiga ta'sir ko'rsatishi, milliy-madaniy hamda hududiy-nutqiy ottenkalarning kognitiv-ishoraviy, tasviriy-grafik nutqiy ifodalanishi lisoniy ongning umumiylik va xususiylik mezonlari orqali aniqlangan fikrlardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, "O'zbekiston teleradiokanali", "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" kabi ko'rsatuvlarni tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 2-maydagi 26-36-979-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ko'rsatuvlarning mazmuniy tomonlari boyitilib, teleko'rsatuv va eshittirishlarning tomoshabop jihatlari ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi, kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 133 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Noverbal vositalar va ularni o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda noverbal vositalar va ularning tilshunoslikdagi tadqiqi, noverbal vositalarning tasnifi va tavsifi xususida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, tilshunoslikda noverbal vositalarni tadqiq etuvchi soha – paralingvistikaning shakllanishi va bu sohaga oid tadqiqotlar berilgan.

Paralingvistika alohida ilmiy soha sifatida XX asrning 50-yillaridan rivojlana boshlagan. Jahon tilshunosligida paralingvistika bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, G.V.Kolshanskiy birinchilardan bo'lib, paralingvistik vositalar va ularni o'rganish obyekti hamda tasnifi xususida, o'z qarashlarini bildirgan[7]. Muloqotning noverbal vositalari, ularning vazifalari, ular haqidagi eksperimental ma'lumotlar I.N.Gorelovning "Невербальные компоненты коммуникации"[8] asarida uchraydi. G.E.Kreydlin og'zaki muloqotda odamlarning xatti-harakatlari, turli xil imo-ishoralari muhim rol o'ynashini, ular noverbal semiotikaning bir qismi ekanligini ta'kidlab, rus xalqiga xos noverbal vositalarni tasniflaydi[9]. S.A.Garkavets o'zining "Insonning taktil-kinetik tizimi va uning shaxslararo muloqotdagi roli"[10] kitobida insonning mazkur tizim faoliyati va uning shaxslararo muloqotdagi o'rni bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-psixologik muammolari haqida fikr yuritib, shaxs namoyon bo'lishining turli amaliy jihatlari, ularning muloqot jarayoni samaradorligiga ta'siri, axborot uzatishning taktik va kinematik shakllarini tahlil qilgan. M.L.Butovskaya "Язык тело: природа и культура"[11] nomli asarida inson noverbal muloqotining evolyutsion asoslari haqida umumiy ma'lumotlar beradi. Shuningdek, so'nggi yillarda jahon tilshunosligida noverbal vositalar borasida bir qator monografik ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, "Nutq va tilda paralingvistika – hozirgi holat va muammolar" ("Paralinguistics in speech and language – State-of-the-art and the challenge") nomli maqolada mualliflar paralingvistikaning tekshirish doirasiga nutqqa hamroh, so'zlovchining holati, emotsiyalari bilan bog'liq barcha jihatlarni: yig'lash, kulish, yo'tal, tomoq qirish kabi hodisalarni kiritishadi. Mualliflar fikricha, yo'talishning lingvistik hodisa emasligini hamma biladi, lekin yo'tal qandaydir tarzda lingvistik xabarga qo'shimcha ma'no kiritishi mumkin. Xuddi

---

[7] Нурмонов.А. Танланган асарлар III жилдлик. II жилд. – Тошкент, 2012. – С.40.

[8] Колшанский Г.В. Паралингвистика. – Москва: Наука, 1974. – С.6.

[9] Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникациию –Москва: Либроком, 2009. – 112 с.

[10] Гаръкавец С.А. Тактильно-кинетческая система человека и ее роль в межличностной коммуникации: [учебное пособие по психологии невербального общения]. – Луганск: Ноулидж, 2012. – 184с.

[11]Бутовская М.Л. Язык тело: природа и культура (эволюционные и кросс – культурные основы невербальной коммуникации человека). – Луганск: Ноулидж, 2012. – 184с.

shu narsa kulish va to‘ldirilgan pauzalarga ham tegishli bo‘lib, ular tilning ba’zi xususiyatlarini namoyish etadi, masalan, grammatik pozitsiya yoki fonotaktika jihatidan. Bu hodisalarning barchasi so‘z zanjiriga kiritilgan va ko‘pincha so‘zlovchi holatini, hissiyot/kayfiyatini, spikerning o‘ziga xos xususiyatlarini va boshqalarni bildirishi mumkin. Lingvistik darajaga kelganda esa paralingvistika sof fonologiya/morfologiya/sintaksis/semantikadan tashqaridagi hamma narsani o‘z ichiga oladi.[12] Nuning Kurniasih esa paralingvistika – bu og‘zaki xabarlardan tashqari, tana tili, yuz ifodasi va gapirish ohangi kabi og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan belgilarni o‘rganadigan fan deb ta’riflaydi.

O‘zbek tilshunosligida ham paralingvistik vositalar va ularning turli aspektlaridagi tadqiqiga bag‘ishlangan talaygina ishlar amalga oshirilgan. Xususan, o‘zbek tilshunosligida ilk bor A.Nurmonov tomonidan bu sohaning muhim xususiyatlari, paralingvistik vositalar, ularning turlari, ushbu vositalarning kommunikatsiya jarayonida tutgan o‘rni va ahamiyati kabi masalalar tadqiq etildi[13]. A.Nurmonov aslida bir qator yangi yo‘nalishlarni o‘zbek tilshunosligiga olib kirgan, jahon tilshunosligi yutuqlarini o‘zbek tiliga tatbiq etgan yetuk tilshunoslardan biri sifatida e’tirofga sazovor. Olim paralingvistika borasida ham zaruriy qarashlarni bayon etgan. Jumladan, o‘zbek paralingvistik vositalari, paralingvistikaning o‘rganish obyekti, paralingvistik belgilar va til strukturasi, lingvistik va paralingvistik belgilar munosabati, imo-ishoralarning kelib chiqishi, ishora fe’llari, o‘zbek tilining inkor etuvchi paralingvistik vositalari, nutqda imo-ishoralardan foydalanish ehtiyoji kabi masalalarni yoritib bergan.

Mazkur paragrafda Sh.Iskandarova, M.Saidxonov, Z.Akbarova kabi olimlarning tadqiqotlari ham tahlilga tortib o‘tilgan.

Bobning ikkinchi paragrafida “Noverbal vositalarning tasnifi va tavsifi” amalga oshirilgan.

G.V.Kolshanskiy paralingvistik vositalarni quyidagi tasniflaydi:

1. Fonatsiya − bu tovush yo‘llarining artikulyar harakatlari bilan o‘zgartiriladigan tovush hosil qilish uchun halqumdan foydalanish.

2. Kinesika − bu imo-ishoralar, mimika va pantomimikadan iborat bo‘lgan muloqot vositalari tizimi.

3.Grafika − bu vositalar diqqatni jalb qilish, ma’lumotga hissiy tus berish va matnning matnosti qismini ajratib ko‘rsatish uchun ishlatiladi[14].

D.Rustamov esa, doktorlik ishida muloqot jarayonida qo‘llanuvchi paralingvistik vositalarni quyidagicha tasniflaydi:

I. Og‘zaki nutqqa xos paralingvistik vositalar:

1) fonatsion vositalar: ovoz tembri, ohangi, pauza, kerakli o‘rinlarni ovoz o‘zgarishi orqali ta’kidlash;

2) optik vositalar: ko‘z orqali imo-ishoralar;

3) mimika: yuz harakatlari;

---

[12] Schuller B., Steidl S., Batliner A., Burkhardt F., Devillers L., Müller C., Narayanan S. Paralinguistics in speech and language-State-of-the-art and the challenge. https://www.sciencedirect.com/journal/computer-speech-and-language

[13] Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. − Андижон, 1980.− 24 б.

[14] Колшанский Г.В. Паралингвистика [Текст] / Г. В. Колшанский. – М.: Наука, 1974. – 494 с.

4) kinetik yoki "pantomimik" vositalar: bosh va gavda harakatlari.

II. Yozma muloqotga xos paralingvistik vositalar:

Grafik vositalar: a) tinish belgilarni uslubiy talab asosida noan'anaviy qo'llash; b) shriftning hajmi va rangini o'zgartirish, kursiv orqali ajratib ko'rsatish; d) yordamchi ramziy grafik belgilar: §, №, %, +, -, /, [], &, $, *, = kabi.

III. Virtual muloqotga xos paralingvistik vositalar: audiovizual vositalar – ovozli yozuv, videotasvir kabi.

IV. Universal paralingvistik vositalar:

Ikonik (tasviriy) vositalar: rasm, foto, sxema, chizma, tablitsa kabi[15].

Bizningcha, muloqot paytida ko'pincha quyidagi imo-ishoralar kuzatiladi (1-jadval):

1-jadval.
Imo-ishoralar turlari

T.r.	Imo-ishora turi	Imo-ishora xususiyati
1	Baholash imo-ishoralari	iyagini chizish, ko'rsatkich barmog'ini yanoq bo'ylab cho'zish, turish va aylanib yurish va h.k.
2	Ishonch imo-ishoralari	barmoqlarning piramida gumbaziga ulanishi, stulda tebranish
3	Asabiylashish va noaniqlik imo-ishoralari	bir-biriga bog'langan barmoqlar, kaftlarni chimchilash, barmoqlar bilan stolga teginish, o'tirishdan oldin stulning suyanchig'iga teginish, achchiq tabassum va boshqalar
4	O'z-o'zini nazorat qilish imo-ishoralari	qo'llar orqaga o'ralgan, biri ikkinchisini siqib chiqaradi; stulda o'tirgan va qo'ltiqni qo'llari bilan mahkam ushlab turgan odamning holati va hokazo
5	Kutish imo-ishoralari	kaftlarni ishqalash; sekin nam kaftlarni lattaga artish
6	Inkor imo-ishoralari	ko'kragiga buklangan qo'llar; tana orqaga egilgan; qo'llar kesishgan; burun uchiga teginish va hokazo
7	Joylashuv imo-ishoralari	qo'lni ko'kragiga qo'yish; suhbatdoshga vaqti-vaqti bilan teginish va boshqalar
8	Hukmronlik imo-ishoralari	bosh barmoqlarni namoyish qilish, yuqoridan pastga keskin tebranishlar, qoshlar tushirilgan tabassum va boshqalar bilan bog'liq imo-ishoralar
9	Nosamimiylik imo-ishoralari	"og'zingizni qo'lingiz bilan yopish"; "Burunga tegish" og'izni yopishning yanada nozik shakli sifatida yolg'on gapirish yoki biror narsa haqida shubha qilish; tanani suhbatdoshdan burish, "yugurib qarash", pastki qovoqsiz tabassum va boshqalar, shunga o'xshash rasmlarni jo'natish.

Dissertatsiyaning **"Virtual muloqotda noverbal vositalarning qo'llanishi"** deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi paragrafi *"Virtual muloqot va unda noverbal vositalarning o'rni"* ni tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Virtual muloqot bu kompyuter vositachiligidagi xususiyatga ega bo'lgan va telekommunikatsiya tizimlari yordamida amalga oshiriladigan aloqa turi hisoblanadi. Zamonaviy telekommunikatsiya texnologiyalari, xususan, internet global tarmog'i jahon hamjamiyati rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylandi. U jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatib, yangi "virtual voqelik" tushunchasini shakllantirdi.

---

[15] Рустамов Д. Мулоқотнинг интралингвистик ва экстралингвистик талқинлари ҳамда замонавий концепциялари: филол. фан. д-ри. (DSc) дисс... – Андижон, 2021. – 229 б.

Virtual voqelik real, moddiy olamdan farq qiladigan, asosi nomoddiy tushunchalar – fikrlar, tasvirlar va axborotdan iborat bo'lgan muhitdir. Bu muhitda paydo bo'lgan virtual muloqot – bu masofadagi suhbatdoshlar o'rtasidagi kompyuter va telekommunikatsiya tizimlari vositasidagi yozma hamda og'zaki shakldagi muloqotni anglatadi. Tadqiqotchilar virtual muloqotni "oraliqlashgan muloqot", ya'ni bilvosita va vositali muloqot sifatida tavsiflaydilar. Virtual kommunikatsiya jarayonida muloqot ishtirokchilari jismonan bir makonda bo'lmasada, elektron vositalar orqali "ishtirok etish hissi"ni va muloqot tuyg'usini boshdan kechiradilar.

Virtual muloqot real muloqotga nisbatan yana bir qator xususiyatlarga ega (2-jadval).

2-jadval.

Virtual muloqot xususiyatlari

Adresant va adresat ma'lumot uzatishning turli usullaridan foydalangan holda odatiy yashash maydonida bo'ladi.	Muloqot ishtirokchilari sherikning shaxsiyati haqida uning atrofidagi dunyoga bo'lgan qarashlari haqida ma'lumot olishadi.	Bilimlarni oshirishda, tibbiy maslahat va boshqa masalalarda ma'lumotga ega bo'lishda ahamiyatlidir.
Yozma shaklda (chat, elektron pochta) amalga oshiriladi.		Xabar almashish sizga yozma matnni tushunish qobiliyatini yaxshilashga imkon beradi.

Virtual kommunikatsiya funksiyalari ham alohida e'tiborga loyiqdir. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, virtual aloqa bir vaqtning o'zida bir necha kommunikativ funksiyalarni bajaradi (3-jadval).

3-jadval.

Virtual muloqot funksiyalari

FUNKSIYALAR	IZOH
Axborot funksiyasi	Internet ulkan axborot makoni bo'lib, ma'lumot izlash, uzatish va saqlashni ta'minlaydi.
Kommunikativ funksiya	Masofadan real vaqtda yoki kechikish bilan muloqot qilish imkonini beradi.
Reprezentativ funksiya	O'z ijod mahsuli yoki fikrlarini namoyish etish imkoniyatini beradi.
O'zini namoyon etish funksiyasi	Foydalanuvchiga o'z profilingni yuritish, shaxsiy ma'lumot va fotosuratlarni joylashtirish, o'zini tanitish imkonini beradi.
Affektiv funksiya	His-tuyg'ularni ifodalash va ulashish imkonini beradi.

Masofaviy yozishma yuzma-yuz muloqotga nisbatan sodda ko'rinishga ega bo'lsa-da, hissiy jihatdan rang-barang bo'lishi va hatto kommunikantlarning kayfiyati hamda munosabatlariga ta'sir ko'rsata olishi ta'kidlanadi.

Biz virtual muloqotning xususiyatlaridan va kommunikantlar psixikasidan kelib chiqib, bir necha bosqichlarni qayd etamiz:

1. Murojaat yoki aloqaga kirishish bosqichi. Bunda muloqot jarayoniga kirishish, sherikning holati, kayfiyatini his etish, yo'nalishni belgilab olish va sherikka ham shunga imkon yaratish jarayoni nazarda tutiladi. Bu bosqichda oddiy muloqot singari salomlashuv, murojaat qilish hamda mavzuni belgilash muhim hisoblanadi.

2. Diqqatni jamlash bosqichi. Ikkinchi bosqich qandaydir muammo, tomonlarning vazifasi va mavzu haqida o'ylash, diqqatni jamlash davri hisoblanadi.

3. Anglash bosqichi. Suhbatdoshning mavzuga bo'lgan munosabati, motivlari va qiziqishlarini tushunish bosqichi.

4. Mustahkamlash bosqichi. Mazvu doirasidagi fikrlarni jamlab, e'tiborni mustahkamlash bosqichi boshlanadi.

5. Asoslash bosqichi. Fikrlarda nizolar bo'lsa, asoslash va ishontirish bosqichi keladi.

6. Xotima yoki natijalarni qayd etish bosqichi. Agar mavzular ko'rib chiqilgan bo'lsa yoki sherik notinchlik alomatlarini namoyon qilgan taqdirda muloqotni yakunlash zarur. Muloqotni doimo davom ettirish istiqboli bilan yakunlash kerak. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so'zlar o'ta muhimdir, ba'zida ular ko'p vaqt davom etgan suhbat natijasini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin.

Ikkinchi bobning *"Virtual muloqotdagi noverbal vositalar tasnifi va tavsifi"* deb nomlangan ikkinchi paragrafda xabarlar orqali yozma suhbat olib borish jarayonida grafik vositalar, leksik-semantik birliklar hamda sintaktik birliklarning qo'llanishida ayrim o'ziga xosliklar mavjudligi qayd etilgan. Shuningdek, virtual muloqotning yana bor qator xususiyatlari qayd etilgan.

Virtual muloqotga kirishgan foydalanuvchilar yozma suhbat jarayonida turli noverbal vositalardan foydalanadilar, ya'ni *kulgichlar, gif, stiker, animatsiya* va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

A. Y. Isayeva va boshqa hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda madaniy xilma-xillikning yetakchi xususiyatlaridan biri bo'lgan Internet hamjamiyati doirasida qo'llaniladigan emotikonlar yoki kulgichlar eng universal aloqa vositasi sifatida e'tirof etilgani holda quyidagi guruhlarga ajratiladi[16]:

1) emotikonlar – turli xil his-tuyg'ularni (quvonch, kulgi, g'azab, yig'lash, ajablanib va boshqalar) ifodalovchi ko'pincha sariq rangdagi piktogramma;

2) odamlar – o'z navbatida jinsi bo'yicha bo'linadigan odamlarning tasvirlari – jinsi, yoshi, kasbi, (erkak, ayol, bola, kuyov, shifokor va boshqalar), shuningdek, imo-ishoralar va tana qismlarining tasvirlari (barmoq, ko'zlar, lablar, quloq, burun va boshqalar);

3) hayvonlar va tabiat – bu hamma biladigan hayvonlarning, shuningdek, hasharotlarning tasvirlari, o'simliklar, gullar, atmosfera va tabiiy hodisalari;

4) oziq-ovqat-taomlar tasvirlari, ular o'z navbatida turli ovqatlar, idishlar va ichimliklarga bo'linadi;

5) narsalar va simvollar – turli xil obyektlar tasvirlari: sevimli mashg'ulotlar, sport va faollik, ofis, o'quv materiallari, transport vositalari, bayroqlar va boshqalar.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, barcha kulgichlar quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1) eng taniqli hodisa yoki mavzuga asoslangan;

---

[16] Исаева А.Ю., Акимцева Ю.В. Грекова Д.М. Лингвистические особенносьти сетового общения (на материале англоязычных комментариев в социальных сетях Facebook и Instagram). 2020.

2) birlik – aksariyat hollarda emoji bitta element sifatida taqdim etiladi (ammo shuni ta'kidlash kerakki, bir qator juft emojilar mavjud, masalan, "qarsaklar"emoji).

"Virtual muloqotda noverbal vositalarning funksiyalari" deya nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobi uchta paragrafdan iborat. Ushbu bobda virtual muloqotda ham, an'anaviy muloqot singari, turli strategiyalar qo'llanilishi xususida so'z boradi. Bobning *"Virtual muloqotda qo'llaniladigan nutqiy strategiyalar"* deb nomlangan birinchi paragrafida nutqiy strategiyalar xususida ma'lumotlar berilgan.

Tilshunoslikda nutqiy strategiyalar turlicha tasnif va talqin qilingan. Jumladan, K.Y.Kalinin o'z ishida quyidagi muloqot strategiyalarini, shuningdek ularni amalga oshirish uchun ishlatiladigan usullarni, texnikani va vositalarni belgilaydi:

1. Taqdimot strategiyasi: so'z taktikasi, shaxsiy tajriba namunasi, ijobiy emotsional holatning paydo bo'lishi.

2. Chaqiruv strategiyasi: murojaatlar, mulohazalar, ishonchli taqdimot, so'zlovchining samimiyligi.

3. O'z-o'zini namoyon qilish strategiyasi: tanqid, raqiblarga nisbatan ustunlikni namoyish etish, ijobiy qiyofani o'rnatish, kalit so'zlardan foydalanish, parallelizm, nutqning strukturaviyligi, e'tirozni emotsional tarzda namoyish qilish.

4. Raqibga nisbatan obro'sizlantirish strategiyasi: mantiqiy dalillarni keltirish taktikasi, dalillarni namoyish qilish, axborotni tanlab olish va kerakli sharhlarni talqin qilish, chaqiruv, salbiy imidj (obrazni) yaratish, avtoritar fikrlar bildirish.[17]

M.Hakimov nutq strategiyasini lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari qatoriga kiritadi va so'zlovchining muayyan fikrni ifodalash uchun muayyan usulni tanlashi lozimligini aytib o'tadi.[18]

Virtual muloqotda ham, an'anaviy muloqot singari, turli strategiyalar qo'llaniladi. Biroq uning o'ziga xosligi shundaki, yozishma shaklidagi muloqot bo'lgani bois, strategiyalarni amalga oshirish usullari biroz farq qiladi. Quyida virtual muloqotda tez-tez uchraydigan ba'zi nutqiy strategiyalar va ularning xususiyatlari tahlil qilinadi:

– diqqatni tortish va murojaat strategiyasi;

– nazokat va xushmuomalalik strategiyasi;

– hissiy ta'sir etish strategiyasi;

 – hazil va kinoyani yetkazish strategiyasi.

Demak, virtual muloqotda nutqiy strategiyalarni amalga oshirishda lingvistik vositalar bilan bir qatorda noverbal (nolingvistik) vositalar majmuasi ishlatilmoqda. Smaylik, emoji, stiker va memlar strategik maqsadlarga xizmat qilmoqda: e'tiborni tortish, ohangni sozlash, hissiyot ulashish, hazil yaratish va hokazo.

Bobning ikkinchi paragrafi *"Virtual muloqotdagi noverbal vositalarning funksiyalari"* deb nomlangan. Hech bir nutqiy birlik muloqot jarayonida maqsadsiz

---

[17] Калинин К. Е. Коммуникативные стратегии убеждения в англоязычном политическом дискурсе : дис. канд. филол. наук. - Н. Новгород, 2009. – С. 83.

[18] Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013. – Б. 22.

va funksiyadan xoli tarzda qo'llanmaydi. Zero, til va nutqning o'zi maqsadli faoliyatni ifoda etadi hamda ijtimoiy ehtiyoj natijasi sanaladi. Til va nutq birliklari muloqot jarayonida bir qator funksiyalarni bajaradi. Nutqning funksiyalari esa quyidagicha ko'rsatiladi:

1) umumlashtirish funksiyasi so'zning faqat bitta berilgan predmetni emas, balki shunga o'xshash predmetlarning butun guruhini umumlashtirishi va doimo ularning muhim belgilarining tashuvchisi bo'lishi bilan bog'liq;

2) ta'sir funksiyasi insonning nutq orqali odamlarni muayyan harakatlarga yoki ulardan voz kechishga majbur qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi;

3) xabar funksiyasi so'zlar, frazalar orqali odamlar o'rtasida ma'lumot (fikrlar) almashinuvida ifodalanadi;

4) ifodalash funksiyasi, bir tomondan, nutq orqali inson o'z hissiyotlarini, kechinmalarini, munosabatlarini to'liqroq yetkazishi mumkin, boshqa tomondan, nutqning ifodaviyligi, uning emotsionalligi muloqot imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi;

5) nomlash funksiyasi insonning nutq orqali atrof-muhitdagi predmetlar va hodisalarga faqat o'zlariga xos nomlar berish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Jadval shaklida virtual muloqotda keng qo'llaniladigan ba'zi noverbal vositalarning misollari va ularning asosiy lingvistik funksiyalari keltirilgan. Ushbu jadvalda emoji, smaylik (matnli emotikon) va mem kabi turli vositalar tanlab ko'rsatiladi hamda ularning tasviri va izohlari beriladi. (4-jadval)

Barcha tahlillar shuni tasdiqlaydiki, virtual muloqot – bu lingvistik va noverbal vositalarning mushtarak maydoni bo'lib, unda matn va tasvir uyg'unligi yangi kommunikativ imkoniyatlar yaratgan. Smayliklar, emojilar va memlar endilikda shunchaki dekorativ unsur emas, balki tilning bir qismi sifatida qaralmoqda. Ularning funksional roli esa muloqot davomida juda xilma-xil – hissiy ko'prik qurishdan tortib, butun boshli gap o'rnini bosishgacha bo'lgan vazifalarni o'z zimmasiga olgan. Bu hodisaning ahamiyatini filologlar chuqur anglab, keyingi tadqiqotlarda yanada keng qamrovda o'rganmoqdalar.

Tadqiqotning *"Noverbal vositalarda milliy-madaniy ottenkalarning ifodalanishi"* qismida noverbal vositalarning urf-odat jihatidan xalqlar orasida farqlanishi xususi yoritib berilgan.

Professor N.Mahmudov ta'kidlaganidek, til ko'p vazifali hodisadir, uning muayyan bir vazifasiga asoslangan holda yaxlit mohiyatini belgilab bo'lmaydi, ko'pincha, xususan, sistem-struktur tilshunoslikda ham tilning aloqa vositasi bo'lmish – kommunikativ vazifasigagina suyaniladi. Aslida kommunikativ vazifa bilan bir qatorda "til dunyoni bilish, bilimlarni to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqealantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Tilni faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mutlaqo mosuvo bo'lgan sun'iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli "til"ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas"[19].

---

[19] Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 44.

Virtual muloqotdagi noverbal vositalar funksiyalari

Vosita (tasvir)	Izoh – ifodalanayotgan holat	Lingvistik funksiyasi
☺ ("tabassum" smaylik)	Oddiy ikkita belgi :-) shaklida tasvirlangan kulgu ifodasi. Suhbatdoshingizga do'stona munosabatda ekaningizni bildiradi.	Xushmuomalalik, ohangni muloyimlashtirish. Matnga do'stona, ijobiy konnotatsiya qo'shadi.
